

Akademik litsey jamoasi Jeju Turizm Universiteti, Jeju Halla Universiteti hamda Jeju Milliy Universitetiga tashrif buyurdilar

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyining 24 nafardan iborat jamoasi "Ochiq eshiklar" kuni munosabati bilan 24-yanvar kuni Janubiy Korea Respublikasining **Jeju Turizm Universiteti, Jeju Halla Universiteti** hamda dastur tashkilotchisi bo'lgan **Jeju Milliy Universitetiga** tashrif buyurdilar. Tashrif davomida delegatsiya a'zolariga universitet fakultetlari, yo'nalishlari, talabalar turar joylari, ularga beriladigan stipendiyalar hamda dual ta'lim doirasida talaba almashinuvi dasturlari eng asosiysi viza olish va kontrakt summolari haqida taqdimotlar namoyish etildi. O'quvchi yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. Rasmiy tashrif davomida Jeju Halla Universitetining **Tabiat muzeyi** hamda **amaliy laboratoriya xonalari** bilan yaqindan tanishdilar. Mas'ul rahbarlar hamkorlik shartnomalar imzolashni kelishib oldilar.











SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati